

ODAM ORGANIZMIDAGI ENG ZAHMATKASH A'ZO - BUYRAK

Eshdavlatova Gulasal Alim qizi

*Termiz Davlat Universiteti, Akademik liteyi o'qituvchisi O'zbekiston, Termiz. Email:
gulasaleshdavlatova@gmail.com*

Berdishukurova Baxtigul Abdunazarovna

Termiz Davlat Universiteti, Akademik liteyi o'qituvchisi O'zbekiston, Termiz. Email:

Annatasiya: Buyrak, koptokchalar, buyrakdan buyrakni farqi, tug'ma xastalik sabablari, hayotdan orttirilgan kasalliklari, sun'iy buyrak, buyrak xastaliklarida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar.

Tabobatning otasi deb haqli ravishda ulug'langan buyuk Gippokratning ushbu jumlalarini keltisak; " Tibbiyot qo'shish va ayirishdan iborat: vujudga yetishmay qolgan har qanday narsani qo'shish hamda ortiqcha bo'lib qolgan har qanday narsani ayirib tashlash: kim uni yaxshiroq bajarsa , o'sha yaxshiroq tabibdir". Zero, qo'shish va ayirishni bajaradigan organizmning o'z tabibi bor. Bu buyrakdir. Buyragimiz bizni ixtiyorimizga bo'ysunmagan holda organizmda ortiqcha bo'lib qolgan suyuqliklar, tuzlar, kislotalar, zararli parchlanish ayirib, yetishmagan unsurlarni sintez qilib turadi.

" Tanangizdagagi eng tinib tinchimas a'zo qaysi?"- deb so'rashsa hech o'ylab o'tirmay, "Yurak" - deb javob berasiz. Javobingiz qisman to'g'ri xolos. Yurak o'rtacha olganda 60- 84 marta qisqaradi, ya'ni bir kecha kunduz maboynida 18000 kilojoulga teng ish bajaradi.

Ammo - lekin bu, yurak tinimsiz ishlaydi degan gap emas. Jo'n qilib aytganda, yurak umrning ko'p qismini oyog'ini osmondan qilib dam olib yotgan holda o'tkazadi. Fikrimizni dalillar bilan isbotlaymiz. Bir daqiqani shu fursat maboynida yurakni qisqarish soniga bo'lsak, har bir qisqarish uchun 0,7 - 1 soniya sarflanishi ma'lum bo'ladi. Mana shu muddatning 55-60 foizini yurak bo'shashgan holda, ya'ni dam olib o'tkazadi. Yurak faqat qonni haydash uchun mo'ljallangan bolsa, buyrak zimmasiga naqt yigirmadan ortiq vazifa yuklatilgan.

Inson sog'ligi, uzoq umr ko'rishi juda ko'p jihatdan tanadagi eng zahmatkash a'zo – buyrakka, uning toliqmay ishlashiga va xastalanmasligiga bog'liq.

Buyrak — odamda siyidik hosil qiluvchi va uni ajratuvchi juft a'zo. Buyraklar loviya shaklida bo'lib, qorin bo'shlig'ining orqa tomonida, umurtqa pog'onasi bel qismining ikki yonida joylashgan. Qorin parda buyraklarning old yuzasini qoplab turadi. Old va orqa yuzalari yassilangan, har bir buyrakning bo'yи 10—12 sm, eni 6 sm, yo'g'onligi 3—4 sm, og'irligi o'rtacha 140—150 g.

Endi dunyoning yeti mo'jisidan biri hisoblanmish Misr ehromlarini ko'z oldizga keltiring. Olimlarning fikrlariga ko'ra ayni shu ehromlar shakl - shamoyilidagi jismlar koinotdan yog'iladigan bioquvvatni tutib yerga uzatish xususiyatiga ega ekan. Yaratgan

Olloho ni mo'jizasini qarangki, bir burda go'sht degali arzigu lik buyraklarimiz ichiga Misr ehromi shakl-shamoyilidagi 16-32 ta ehromchalar joylashtirilgan

O'ng buyrak tepasida jigar borligi tufayli, chap buyrakga nisbatan bir oz pastroqda yotadi. Buyrakning yuqori uchi umurtqaga yaqin, pastki uchi esa umurtqadan uzoqroq bo'ladi. Buyrakning umurtqaga qaragan ichki tomoni o'rtasida botiq joy bo'lib, u buyrak darvozasi deyiladi. Buyrakning botiq yuzasiga buyrak jomi taqalib turadi. Buyrak darvozasidan buyrak arteriyasi va nervlar kirib, vena, limfa tomirlari va siydi k yo'li chiqadi. Bularning hammasi birgalikda buyrak oyoqchasi deb ataladi. Buyrak ichida buyrak usti bezlari bor. Moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'ladigan chiqindi va zararli moddalar organizmdan buyrak orqali chiqib ketadi. Shu bilan birga buyrak organizm uchun zarur miqdordagi suv va mineral tuzlarni saqlab, tashqariga chiqarmay qo'yadi. Organizmning ichki muhitini ta'minlaydi. Buyrak siydi k bilan birgalikda siydi kchil (mochevina), siydi kislota, tuzlar va suvni chiqarib turadi. Buyrakda biologik faol moddalar (renin, prostoglandin va boshqalar) hosil bo'lib, ular qon tarkibi, qon ivishi va qon bosimini maromga solib turadi. Buyrakni fibroz parda, yog' kapsulasi va biriktiruvchi to'qimadan iborat fassiyalar o'rabi, ushlab turadi. Buyrak po'stloq va mag'iz qismdan iborat. Po'stloq qismining qalinligi 4–13 mm keladi. Bu qism ostida mag'iz qismi joylashgan. U 12—15 ta konussimon buyrak piramidalardan iborat. Yondosh piramidalar orasiga po'stloq qism suqilib kirgan bo'lib, buyrak ustunchalarini hosil qiladi. Piramidalar o'rtacha 1 mln. mayda kanalcha (nefron)lardan iborat, shu nefronlarda siydi k hosil bo'ladi, bunda suyuqlik qondan sizib o'tadi (filtranadi), qayta so'riladi va sekresiya ro'y beradi. Har bir nefron buyrak tanachalari bilan siydi k kanalchalaridan iborat.

Siydi k buyrak tanachalarida filtratsiya yo'li bilan paydo bo'ladi. Buyrak tanachasi qo'sh devorli kapsula (Shumlyanskiy—Boumen kapsulasi) bo'lib, devorlari orasida yoriqsimon bo'shliq bor. Siydi k chiquvchi naycha (kanalcha) shu bo'shliqdan boshlanadi. Kapsulada mayda qon tomirlar koptokchasi (kalavasi) bor. Siydi k kanalchalarida birlamchi siydi k qayta so'riladi, konsentratsiyasi oshadi va shakllangan siydi kka aylanadi. Siydi k kanalchalari qo'shilib, yirikroq yig'uvchi kanalchalar hosil qiladi. Siydi k kanalchalardan buyrakning avval kichik, keyin katta kosachalariga va nihoyat buyrak jomiga o'tadi, undan siydi k yo'li orqali qovuqqqa quyladi.

Buyrakdan o'rtacha 1,5 l siydi k ajralishi uchun organizmdagi qon buyrakdan bir kecha-kunduzda o'rtacha 360 marta o'tib, yetarlicha tozalanib turadi. Buning uchun buyrakga keladigan qon miqdori va bosimi doimo yetarli bo'lishi kerak.

Ona qornida homila 9 haftalik bo'lganida (bu davrda homilaning uzunligi bor-yo'g'i 4,5-5 sm ga yetadi) hali to'la shakklanib ulgurmagan vujuddagi buyrak ilk bor vazifasiga kirishadi. Bunda peshop homila bilan onani bog'lab turuvchi yo'ldosh tarkibidagi qon tomirlari orqali ona qoniga o'tib, tasikzlarni keltirib chiqaradi. Vaqt soati yetib chaqaloq yorug' dunyoga kelguniga qadar kechgan turli murakkab jarayonlar asnosida u yoki bu xastaliklar paydo bo'lishi mumkin. Bir buyragi rivojlanmay qolgan homilaning ikkinchi buyragi kattalashadi, undagi suzilmalar yiriklashib, sherigini

vazifasini ham o'zi bajaradi. Agar yallig'lanish yuz bermasa bunday odamlar sog'lomlardan farq qilmaydi. Hisob - kitoblarga qaraganda har mingta chaqaloqning bittasi buyrak polikistozi bilzn tug'iladi. Buyrak sizilmasining tug'ma kengayishi, buyraklarning joylanish o'rnida ham nuqsonlar uchrashi, qo'shimcha ya'ni uchinchi buyrak bilan ham tug'ilish ham organizmni nobud bo'lishiga olib keladi.

Buyrakning hayotdan orttilgan kasalliklariga buyrak-toshlari paydo bo'lishini va uning sabablariga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❑ Inson ingichka ichaklari juda ko'p kalsiyni o'zlashtirishi;
- ❑ Buyrak ratsionida kalsiy yoki boshqa minerallar juda ko'pligi;
- ❑ Inson tanasida buyrak toshlarini hosil qilish ehtimolini oshiradigan ma'lum bir kasallikni meros qilib olgan holatda bo'lishi. Buyrak toshlari xavfini oshiradigan boshqa omillarga quyidagilar kiradi:
 - ❑ Yetarli suyuqlik ichmaslik (ayniqsa yozda);
 - ❑ Yetarlicha mashq qilmaslik yoki harakatsiz turmush tarzi;
 - ❑ Gipertenziya, bu odamlarda buyrak toshlari paydo bo'lish ehtimolini deyarli 3 baravar oshiradi;
 - ❑ Stress;
 - ❑ Noto'g'ri ovqatlanish odatlari;
 - ❑ Metabolik sindrom;
 - ❑ Semirib ketish.

Buyrak-tosh kasaligining taxminan 85% i buyrak toshlari siyish paytida o'tib ketadigan darajada kichikdir. O'tish odatda birinchi alomatlardan keyin 72 soat ichida sodir bo'ladi. Og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilish va kuniga kamida 6-8 stakan suv ichish, qo'shimcha ravishda yotishdan oldin va tunda ikki stakan suv ichish, odatda toshning osonroq o'tishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, shifokor tomonidan bemorning umumiy holatidan kelib chiqib, zamonaviy tibbiyotga yordamchi sifatida xalq tabobati usullaridan ham foydalanish mumkin. Bunday davolash usulidan hozirgi kunda keng ishlatilanayotgan dorivor o'simliklardan foydalanish yaxshi natijalar olish imkonini beradi.

Shuningdek, quyidagi usullar ham buyrak-tosh kasalligini davolash va uni oldini olishda tavsiya etish mumkin:

1. Shaftoli danagi xalq tabobatida buyrak va qovuqdagi toshlarni yemirish va eritish xususiyatiga ega. Mag'zidan esa peshob haydovchi vosita sifatida foydalaniladi.
2. Abu Ali ibn Sino qovunning shifobaxshlik xususiyatlari haqida to'xtalib, uning salqin joyda quritilgan po'chog'ining damlamasi buyrak va qovuqdagi toshlarni maydalash xususiyatiga egaligini ta'kidlab o'tgan.
3. Buyrak, qovuq, jigarda tosh bo'lsa, qaynoq petrushka damlamasidan ichilsa, foyda beradi. Xalq tabobatida petrushka buyrak va qovuqdagi toshlarni eritib haydovchi va siyishni osonlashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

4. Xalq tabobatida buyrak og'rig'ini davolash uchun piyoz sharbatini shakar bilan aralashtirib, kuniga bir osh qoshiqdan 2 mahal ichish tavsiya qilinadi.

5. Abu Ali ibn Sino "Mayizli damlama buyrak va qovuq xastaliklarida ichib turilsa, yaxshi shifo beradi" deb aytgan. Buning uchun yarim litrli choynakka bir choy qoshiq quruq choy va yarim stakan mayiz solinadi. Qaynoq suv quyib, o'rab qo'yiladi. Keyin shu damlamadan 1-2 piyola ovqatdan oldin ichib turish tavsiya etiladi. Ushbu damlamani bir oy davomida iste'mol qilish buyrakdagi shamollashni qaytaradi.

6. Zaytun barglari antioksidant ta'sirga ega bo'lganligi uchun, buyraklardagi suvni haydashda ishlatiladi.

8. Qulupnay bargining damlamasi buyrak hamda o't kasalliklarida peshob haydovchi, tuzlarni erituvchi vosita sifatida foydalaniladi.

9. Chilonjiyda mevasi qadimdan xalq tabobatida turli xastaliklarni davolash uchun qo'llanilib kelingan. Abu Ali Ibn Sino chilonjiydani buyrak va qovuq kasalliklarini davolash maqsadida qo'llagan.

10. Qirqbo'g'imni quritilgan maydalangan yer ustki qismidan qopqoqli idishga 4 choy qoshiq solib, uning ustiga 2 stakan qaynagan suv solib damlanadi. So'ng dokadan suzib, kun bo'yи oz-ozdan issiq holda ichib yuriladi. Buyrakni shishini oldini olishda keng qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Faqirov Alijon Zohidovich "BUYRAK" Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashryoti, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

2. BOLALARDA SIYDIK CHIQARUV YO'LLARI TUG'MA RIVOJLANISH NUQSONLARI (2020-yil Andijon))

3. Tibbiyot oliv ta'lif muassasalri uchun darslik - (2018-yil Andijon)

4. Sh.M. Qirg'izov, A.S. G'ofurov Buyrak-tosh kasalligida magnitlangan suvdan foydalanish. International scientific-online conference on Innovation in the modern education system Part 2. 2021. 175-177 b.

5. I.R. Asqarov Sirli tabobat. Toshkent. 2021. 93-99 b. 4. Al-Tawheed AR, Al-Awadi KA, Kehinde EO, Abdul-Halim H, Hanafi AM, Ali Y. Treatment of calculi in kidneys with congenital anomalies: an assessment of the efficacy of lithotripsy. Urol Res. 2006;34(5):291-298.

6. Ferraro PM, Taylor EN, Eisner BH, et al. History of kidney stones and the risk of coronary heart disease. JAMA. 2013;310(4):408-415.

INTERNET MANBALARI:

<http://www.google.co.uz>